

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 414. 55.

NIYOZOVA OZODA XOLTEMIROVNA

**XI-XIV asrlar o‘zbek yozma adabiy tilining fonetik va morfologik
xususiyatlari**

5A111201-O‘zbek tili va adabiyoti

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
f.f.n. O‘rinova O.T.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. O‘ZBEK ADABIY TILI TARIXI VA UNING SHAKLLANISHI.....	7
1. Qadimgi turkiy tilning yuzaga kelishi va u tarqalgan hududlari	12
2. Qadimgi turkiy tildan ko‘chgan fonetik va morfologik unsurlarning qo‘llanilishi.....	21
I bob bo‘yicha xulosa.....	25
II BOB. QADIMGI UMUMTURKIY YOZMA ADABIY TILI.....	26
1. XI-XIV asrlar birinchi yarmi o‘zbek yozma adabiy tilining fonetik xususiyatlarini belgilash.....	26
2. XI-XIV asrlarda yaratilgan asarlarda unli fonemalarning xususiyatlari.....	31
3. XI-XIV asrlarda yaratilgan asarlarda undosh fonemalarning xususiyatlari.....	34
II bob bo‘yicha xulosa.....	39
III BOB. XI-XIV ASRLAR BIRINCHI YARMI O‘ZBEK YOZMA ADABIY TILINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	40
1. XI-XIV asr yozma adabiy tilida egalik, ko‘plik va kelishik ifodalovchi qo‘shimchalar.....	40
2. Qadimgi umumturkiy yozma adabiy tilida so‘z turkumlari:	
a) sifat turkumiga xos qo‘shimchalar;	45
b) son turkumiga xos qo‘shimchalar;	49
v) olmosh turkumiga xos qo‘shimchalar;	50
g) fe‘l turkumiga xos qo‘shimchalar: harakat nomi, ravishdosh, sifatdosh, fe‘l mayllari, fe‘l nisbatlari.....	63
3. Yordamchi so‘zlarning shakllari.....	67
III bob bo‘yicha xulosa.....	73
Xulosa.....	74
Adabiyotlar ro‘yxati	77

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlaboq buyuk ajdodlarimizdan asrlar osha bebaho meros sifatida yetib kelgan nodir asarlar, osori atiqalarni bugungi avlodga aslidagidek yetkazish, ularni ilmiy asosda tadqiq etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero, Respublika Prezidenti ta'kidlaganidek: "Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, minerologiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir"¹.

Ta'kidlash joizki, o'zbek millati qadimdan o'z yozuviga, adabiy tiliga ega bo'lgan sanoqli xalqlardan biri hisoblanadi. Ming yillik yozuv tarixiga ega millat vakillari tomonidan bitilgan qo'lyozmalar nafaqat O'zbekiston, balki qator xorijiy davlatlar kutubxonalarida, xususiy fondlarda saqlanmoqda. Ular ardoqlanib, ilmiy muomalaga kiritilmoqda.

IX asrning birinchi yarmi – XIII asr boshida qoraxoniylar saltanatining hukmronlik qilishi oqibatida arablar istilosi va somoniylar davrida mavqei susayib ketgan turkiy tilning bukik qaddi qayta rostlandi. Unda badiiy, axloqiy, ilmiy asarlar yaratildi. Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Mahmud Zamaxshariyning "Muqaddimat-ul adab" kabi asarlari qatorida 1069-1070 yili bolosog'unlik Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni eski turkiy tilning o'ziga xos jihatlari, imkoniyatlari, lug'at boyligini mujassam etgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tiliga e'tiborni kuchaytirish, uning tarixini yanada chuqurroq o'rganish davr talabiga aylanmoqda. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida til tarixini mukammal tadqiq etish, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishni

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият- енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б.31.

kuchaytirish, mukammal darsliklar yaratish tadqiqotchilar oldiga dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Jumladan, o‘zbek yozma adabiy tilga xos fonetik, morfologik qurilishining shakllanishi va taraqqiyotini belgilash mavjud kemptikni muayyan darajada to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Ana shu kabi mulohazalar ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. XI-XIV asrlarga oid qadimgi umumturkiy tilning, jumladan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” va Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarining fonetik, morfologik tahlilga tortildi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. O‘zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik meyorlarining shakllanishi va taraqqiyotini aks ettirgan yozma manbalarni belgilash hamda ularning til xususiyatlarini tahlil etish va shu asosda magistrlik dissertatsiyasi mavzusini ilmiy-amaliy jihatdan yoritish tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyada quyidagi vazifalarni bajarish rejalashtirilgan:

- o‘zbek tilining shakllanishi va nomlanishi masalasiga oid tarixiy-ilmiy manbalarning talqini va bu boradagi fikr-mulohazalarga munosabat bildirish;
- o‘zbek xalqi va tilining shakllanishi hamda nomlanishiga asos bo‘lgan ildizlarni aniqlash va mazkur masala bo‘yicha muayyan xulosaga kelish;
- o‘zbek yozma adabiy tilining shakllanish davrlariga xos lisoniy xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan yozma manbalarni belgilash va ular tilining dialektal asosi haqidagi fikrlarga munosabat bildirish;
- XI-XIV asrlar birinchi yarmidagi o‘zbek yozma adabiy tili fonetik va morfologik meyorlarining shakllanishiga asos bo‘lganligini ilmiy jihatdan yoritish;
- XI-XIV asrlar birinchi yarmidagi o‘zbek yozma adabiy tili manbalarda qadimgi turkiy til unsurlarining izchilligi hamda milliy yozma adabiy tilning ilk shakllanishi va taraqqiyotidagi o‘rnini aniqlash;

Ilmiy yangiligi:

- ishda o‘zbek tilining ilk taraqqiyot bosqichi asosli belgilandi;

- bu bosqichda o'zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik unsurlarning shakllanish va meyorlashish jarayoni ilmiy asoslab berildi;
- o'zbek yozma adabiy tili tarixini, uning taraqqiyot bosqichlari va yozma manbalarini davrlashtirish sohasidagi muammolarga aniqlik kiritildi;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. O'zbek tilining tarixi bo'yicha qator tadqiqot ishlari olib borilib, ularning natijalari chop etilgan. Masalan, A.M.Shcherbak, xususan, S.Mutallibov, G'.Abdurahmonov, E.I. Fozilov, H.Ne'matov, A.Rustamov, S.Shukurov, Q.Sodiqov, E.Umarov, Q.Mahmudov, N.Mahmudov, X.Dadaboyev, B.O'rinboyev, Q.Karimov, A.Nurmonov, I. Yuldoshev kabi olimlarning ishlari shular jumlasidandir. Amalga oshirilgan ishlar tilimiz taraqqiyoti tarixining ma'lum davrlarini yoritishda, uning istiqbolini belgilashda va ma'naviy me'rosimizni tiklashda muhim o'rin egallaydi. O'zbek tilining fonetik, morfologik meyorlarining yuzaga kelishiga asos bo'lgan manbalarni belgilash, XI-XIV asrlar birinchi yarmiga oid umumturkiy yozma yodgorliklar til materialini qiyoslab tahlil etish, ularga tayanib o'zbek yozma adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotini, ayniqsa, fonetik, morfologik meyorlashuvi chuqurroq yoritildi. Davlat ta'limi standartlari asosida dasturlar, darsliklar va elektron versiyalarini yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. O'zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik meyorlarining ilk shakllanishi va taraqqiyotini o'zida aks ettirgan umumturkiy tilga xos yozma yodgorliklar va "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'otit turk" kabi asarlar matnlari mazkur magistrlik dissertatsiyasi uchun asos manba qilib olindi. Shuningdek, ishda o'zbek tilining nomlanishini belgilash masalasi bilan bog'liq bo'lgan ba'zi tarixiy-etnografik, arxeologik adabiyotlarga ham murojaat etildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotning metodologik asosini til hodisalari bilan bog'liq bo'lgan dialektik ta'limot va qiyosiy-tarixiy metod tashkil etadi. Shuningdek, ishda grammatik tavsif va etnolingvistik, qiyosiy tipologik tahlil usullari ham qo'llanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy ahamiyati shundaki, o'zbek adabiy tili tarixi va uning ilk shakllanish bosqichini belgilash masalasiga ba'zi aniqlandi. Xususan, dastlabki milliy yozma adabiy tilning yuzaga kelishiga asos bo'lgan umumturkiy til yodgorliklarning fonetik va morfologik unsurlarning meyorlashuvi, shakllanishi hamda taraqqiyoti qiyoslab o'rganildi. Shu asosda eski o'zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik unsurlarining meyorlashuvi va taraqqiyoti ilmiy jihatdan belgilandi.

Magistrlik dissertatsiyasi materialidan Davlat ta'lim standartlari talablariga mos holda oliy o'quv yurtlari uchun o'zbek adabiy tili tarixi darsliklarini yaratishda foydalanish mumkinligi uning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Zero, ishning materiallari oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida tanlanma fanlar uchun nazariy asos va ilmiy-tadqiqot ishlarining yozilishida unumli foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va internet saytlari ro'yxatidan iborat bo'lib, 83 sahifani tashkil etadi.

I BOB. O‘ZBEK ADABIY TILI TARIXI VA UNING SHAKLLANISHI

O‘zbek adabiy tilining shakllanishi va uning tarixi til taraqqiyotining o‘ziga xos uzoq tarixiy davrlari hamda shart-sharoitlari bilan o‘lchanadi. O‘zbek adabiy tilining rivojlanish jarayonini tadqiq qilgan vaqtda uning ilk ildizi og‘zaki shaklda miloddan avvalgi davrlar bilan belgilanishini ham qayd etish lozim. Bu haqda faqat yozma manbalar til materiali orqaligina qisman fikr bildirish mumkin. Shuning uchun o‘zbek adabiy til qurilishini tarixiy jihatdan o‘rganishda adabiy tilning og‘zaki shakli emas, balki yozma shakli asos sanaladi.

Demak, adabiy til tarixi yozma adabiy manbalar matnlari tili tarixidan iborat bo‘lib, u o‘zida har bir davrga oid matnlarning til xususiyatlarini jamlaydi, umumlashtiradi. Shu asosda o‘zaro o‘xshash til xususiyatlari bilan ajralib turuvchi matnlar guruhini belgilaydi, ma’lum guruhga kirgan yozma yodgorliklarning til xususiyatlari yig‘indisi, umumlashmasi hamda ular tilning turli adabiy uslublari haqida ma’lumot beradi. O‘zbek adabiy tili tarixida yozuvchilarning tili o‘rganiladi, mualliflar yashagan davr adabiy til xususiyatlarining aks etishi aniqlanadi. Shuningdek, o‘zbek adabiy tili tarixida yozuvchining o‘z davri adabiy tiliga qanday yangiliklar kiritganligi (yangi so‘z, yangi ma’no anglatishda grammatik vositalardan foydalanish usullarini, yangi obrazli so‘z shakllarini qo‘llashlari bilan), o‘zbek adabiy tilining keyingi taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatganligi aniqlanadi. Chunki tildagi so‘z boyligidan, xalq og‘zaki ijodidan foydalanish davomida san’atkor yozuvchi milliy adabiy tilning shakllanishi va taraqqiyoti bilan mos ravishda til qurilishining rivojiga katta hissa qo‘shadi, umumxalq milliy adabiy tilini yanada takomillashtirishga, undagi mavjud qoida-qonunlar tizimining taraqqiy etishiga, qo‘llanayotgan unsurlarning meyorlashuviga ko‘maklashadi.

Qadimgi manbalarda O‘rta Osiyo xalqlarining o‘ziga xos miloddan avvalgi davri haqida xolisona va to‘g‘ri fikr yuritilgan. Jumladan, Plutarx, Arian, Diodor, Yustin kabi olimlarning yozishicha, skiflar O‘rta Osiyodan tarqalgan, ularning ona

tillari O'rta Osiyolik sak va massaget qabilalarinikiga o'xshash bo'lgan². Chunki tarixiy manbalarda kuzatilishicha, skiflarning ko'p qismi (30 dan ortiq turkiy elatlarga bog'liq qabila va urug'lari) O'rta Osiyo hududlarida yashagan.

Demak, har bir urug' va qabilaning shakllanishi ma'lum bir davrlar bilan o'lchanadi. Miloddan avvalgi davrlarda yashagan ko'pgina qabilalar va ularning tillari barcha turkiy elatlar qatori qadimgi o'zbek elati va tilining shakllanishi hamda nomlanishiga asos bo'lganligini tarixiy-ilmiy manbalardagi dalillar guvohlik beradi.

Ta'kidlash lozimki, tarixiy-ilmiy asarlarda ba'zan aslida bitta qardosh qavmdan shakllangan urug' nomi har xil shaklda qayd etiladi. Masalan, **is>us/uz/o'z/od** shaklida mavjud bo'lgan qavmlar turkiyzabon bo'lib, (O'rxun-Enasoy, "Devonu lug'otit turk" kabi yozma yodgorliklarda) ular ba'zan qavm yoki urug', ba'zan qabila sifatida ko'rsatigan. Bizningcha, bu urug'dan keyinchalik **özg'ur>uyg'ur, odg'uz/ozg'uz>og'uz, ispək/ uzpək>özbək** kabi shaklida kishi va qabila-elatlar nomi yuzaga kelgan. Yuzaga kelgan bu qabila-elatlarning nomini bir ildizdan shakllangan deb qarash mumkin.³

O'zbek nomining etnik ildizi qayd etilganidek, miloddan avvalgi davrlarda (**is-pək>ys-pək>yz-bək>öz-bək** shakllarda) yuzaga kelgan deb qaralganligi xarakterlidir.(Bu nom **us/o'z/az** shakllarda milodiy davr yozma manbalarida ham kishi va urug' nomlari ma'nosida qo'llanganligi bo'yicha adabiyotlarda fikr bildiriladi.)

XI-XII asrlardagi arab tilida yozilgan manbalarida ham O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi tarixiga va ularning tili bo'yicha ilk ma'lumotlar mavjud bo'lib, ko'pchiligi fan olamida tanilgan olimlarimizning ilmiy-tarixiy meroslarida o'z aksini topgan⁴. Ayniqsa, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy urug'-qabilalari va ularning tili, dialektal xususiyatlari, yashash va tarqalish o'rinlari, etnogenezi va tarixiga doir nihoyatda muhim ma'lumotlar berilgan. Chunonchi, **o'z, az** urug'larining nomi

² Бойназаров Ф. Ўрта Осиёнинг антик даври. -Т.:Ўқитувчи, 1999. -340 б.;

³ Санакулов У.Ўзбек адабий тилининг ilk давлари.-Т.:Ғафур Ғулом,2004.-279; Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил.-Т.: Ўқитувчи, 1982. -167 б.

⁴ Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси.-Т.: Ўқитувчи, 1994. -22-23, 27-28 бб. (-311 б.)

(urug‘, qabila va qavmlar qatorida maxsus qayd etilmagan bo‘lsa-da,) lug‘atdagi ba’zi so‘zlar izohida uchraydi: **Ōd (o‘z)qavmi** xazinasi (1-t..395-b.), **Tavg‘ach azi (1-t.432-b.)**⁵ kabi. Devonda bu etnonim **az o‘z** shaklida kishi va joy nomlari tarkibida ham kelgan.

XIII-XVI asrlardan boshlab turkiy-o‘zbek elatlar tarixini yaratish keng tus oldi. Bu davrlarda turkiy elatlarning o‘z nomlariga ega bo‘lish jarayoni tezlashgan edi. Narshaxiyning (milodiy 899-960 yy.)“Buxoro tarixi”, Abu Tohirxojaning (milodiy 1011-12 yy. vafot etgan) “Samariya”, Rashididdinning “Jome’-at tavorix” (XIV asr), Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarai turk” (XVI asr) kitoblari bu borada alohida o‘rin egallaydi. O‘zbek xalqining tarixiga oid ma’lumotlar tarixiy-badiiy asarlarda ham keng o‘rin egallay boshlagan⁶. Chunonchi, “Temurnoma”, “To‘rt ulus tarixi”, “Shayboniynoma” “Boburnoma” va boshqa asarlar shular jumlasidandir.

Qayd etish lozimki, Mahmud Koshg‘ariy, Rashididdin va Abulg‘oziy Bahodirxon asarlaridagi o‘tmish ajdodlarimiz haqidagi etnolingvistik ma’lumotlar nihoyatda muhim sanaladi. Chunonchi, Koshg‘ariyning asarida 70 dan ortiq urug‘-qabilalar va ular tilining etnolingvistik tahlili, Rashididdin asarida 70ga yaqin, Abulg‘oziy Bahodirxon asarida esa 50ta yirik avlod (qabila) va 44tadan oshiq turkmo‘g‘ul qabila-urug‘lari tilga olingan⁷.

XIX-XX asrlarda ko‘plab ilmiy-tarixiy manbalarda O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi va tilining etnik xususiyatlari, nomlanishi hamda shakllanishi haqida muhim ma’lumotlar yuzaga keldi. Ularda ham o‘zbek halqi va tili qadimgi davrlar bilan bog‘langan, deb ta’kidlangan. Masalan, tatar olimi Hasan Ato Abushiy turkiy qabila va urug‘larning tarixiy manbalarda 80-90tadan ortiq nomi tilga olinganini aytgan. N.Xannikov 100dan ortik turkiy-o‘zbek qabila-urug‘lari haqida ma’lumot beradi. X.Vamberi Xiva (Xorazm) xonligi, A.Boris esa Buxoro xonligi materiallari asosida 32tadan qabila-urug‘larning nomlarini tilga

⁵ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. (Тарж.С.Муталлибов, 1-т. –Т.1960-1963, 432 b.

⁶ Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. (Nashrga tayyorlovchi P.Ravshanov) -T.: Cho‘lpon, 1991. -350 b.; Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. (Nashrga tayyorlovchilar- B.Ahmedov, N.Norqulov, M. Hasaniy.) -T.: Cho‘lpon, 1994. -351 b.; Muhammad Solih. Shayboniynoma (Nashrga tayyorlovchi E.Shodiyev.) -T.: G‘afur G‘ulom, 1989.-336 b.

⁷ Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. -T.: Фан, 1968, 32-35-bb.; Abulg‘oziy. Shajarayi turk. (Nashrga tayyorlovchi Q.Munirov, Q.Mahmudov). -T.: Cho‘lpon, 1992.-189 b.

olganlar. A.P. Xoroshin esa o'z asarida Zarafshon vohasidagi urug' va qabilalardan 92tasining nomi va yashash joylari haqida ma'lumot bergan. To'g'ri, ushbu olimlarning asarlarida qayd etilgan o'zbek urug'-qabilalari ba'zan boshqa elatlar bilan aralashtirib yuborilgan, ba'zilarida esa asosiy o'zbek urug'lari hisobga olinmagan. Ammo bu asarlar o'zbek xalqining enogenezi masalalarini o'rganishda muhim manbalardan sanaladi.

Ba'zi tarixiy manbalarda **o'zbek** nomining kelib chiqishini Oltin O'rda xoni O'zbekxon va u boshqargan davlat nomiga nisbat berib, g'ayriilmiy fikrlar aytilgan. Bu fikrlarga B.Ahmedov haqli ravishda e'tiroz bildirgan edi. Lekin u **o'zbek** nomining keng yoyilishi masalasida, asosan, A. Y. Yakubovskiy fikriga qo'shilgan⁸.

Ba'zi tarixiy manbalarda, jumladan, dialekt va shevalar materiallarida, xalq so'zlashuv tili asosida yaratilgan o'zbek xalqining shajaralari va badiiy asarlarda ham o'zbek xalqi 92 urug'-qabilalarning birlashuvidan tashkil topgan degan fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, "Qitmir", "Nasabnoma" ("Nasabnomai o'zbek"), "Majmu' at-tavorix", "Asomiya navadu firqayi o'zbek" kabilar o'zbek xalqining shajarasiga bag'ishlangan bo'lib, dialekt va sheva vakillari tilida saqlanib kelinayotgan 92 urug' va qabilalar ma'lumotlariga mos keladi. Ana shu urug'lar orasida o'zbek nomi bilan atalgani ham mavjud. Lekin ayrim ishlarda o'zbek xalqining 92 urug'i haqidagi shajara tan olinmaydi. Masalan, I.Jabborov bu haqda shunday deb yozadi: "Ko'pgina manba va rivoyatlarda o'zbeklarning genealogiyasi (shajarasi) haqida gapirilib, o'zbek xalqi 92 urug' (qabila) dan tashkil topgan, deyiladi. Asli bu raqam haqiqatga to'g'ri kelmaydi"⁹. Olimning bu fikriga qo'shilib bo'lmaydi. O'zbek xalqining bu shajarasidagi ro'yxat juda keng bo'lib, u hali ham to'liq qayd etilmagan. Asosiy urug'lar qatoriga kirmay qolgan qanchadan-qancha shoxobchalari bor. Buni sheva materiallari va joy nomlari ham tasdiqlaydi. Ko'pgina tadqiqotlarda bu haqda dalilllar mavjud.

Ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi davrlardagi etnik qatlamlarini, ularning o'tmish tarixini o'rganish, tadqiq etish jarayonida

⁸ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. -Т.:Ўқитувчи,1994.-430 б.

⁹ Jabborov I. Ўзбек халқи этнографияси.-Т.:Ўқитувчи, 1994.-312 б.

o'zbek urug'lari va tilining nomlanishida ba'zi noo'rin atamalar ham qo'llanib kelinganligi kuzatiladi. Chunonchi, mo'g'ullar istilosi davridan boshlab ba'zi badiiy adabiyotlarda va ilmiy manbalarda (ayniqsa, XIV-XIX asrlarda) o'zbek xalqiga, uning tili va adabiyotiga nisbatan noto'g'ri ravishda **chig'atoy eli (xalqi)**, **chig'atoy tili**, **chig'atoy lahjasi**, **chig'atoy adabiyoti** kabi atamalar ham qo'llangan. Bu davrlarda shakllangan o'zbek adabiy tili, adabiyoti va xalqining nomiga nisbatan **chig'atoy** nomi dahlsizdir.

O'zbek tilining davrlashtirish haqidagi fikrlar har tomonlama talqin etilib, mulohazali ilmiy-tanqidiy yondashilgan holda, o'zbek tili tarixini besh davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb topildi:

1. Eng qadimgi turkiy til davri (milodiy VII asrgacha);

2. Qadimgi umumturkiy yozma adabiy til davri (VII-X asrlargacha);

3. Eski o'zbek yozma adabiy til davri (XI-XVI asrlar)

Bu davr yozma o'zbek adabiy tili taraqqiyotini ikki bosqichga bo'lib o'rganish mumkin: a) o'zbek yozma adabiy tilining XI-XIV asrlar birinchi yarmidagi bosqichi; b) o'zbek yozma adabiy tilining XIV asr ikkinchi yarmi XVI asrlardagi shakllangan bosqichi;

4. Yangi o'zbek yozma adabiy tili (XVII-XX asrlarning boshlari);

Darhaqiqat, turkiy tillarning, jumladan, o'zbek tilining qadimgi ilk yozma shakldagi ildizlarini yoki shakllanishiga asos bo'lgan o'tmish davrlari yozma tilini o'rganishda ushbu qadimgi manbalar muhim o'rin egallaydi. Shu bois mazkur tadqiqot uchun asosiy yozma manbalar sifatida umumturkiy asarlar tanlandi. Bu manbalarning o'rganilishi haqida va o'zbek tilshunosligining so'nggi taraqqiyoti bo'yicha tadqiqotning asosiy qismlarida ham fikr yuritiladi.

1.1. Qadimgi turkiy tilning yuzaga kelishi va u tarqalgan hududlari

Qadimgi turk davri uchga bo'linadi: tukyu davri (V-VII), qadimgi uyg'ur davri (VII-IX) va qadimgi qirg'iz davri (IX-X). Bu davr turk va mo'g'ul tillarining to'la-to'kis ajralganligi bilan xarakterlanadi.

G'arbiy xunlar IV asrgacha asta-sekinlik bilan G'arbiy Yevropa tomon siljigidilar, ular qarshilik qilgan turkiy va turkiy bo'lmagan o'zga qabilalarni bo'ysundirib bordilar. Xunlar davlati qulagach, bu xalqlar Sharqiy Yevropaga qarashli bulg'orlar va hazarlar ittifoqiga qo'shilishdi. Sharqiy xunlar VI asrga kelib (552 yil) turkiy qabilalar bo'lmish tukyularni qulatilishadi va xunlar davlati o'rnida ko'chmanchi Tukyu imperiyasini o'rnatadilar. Bu davlatning hududi Amudaryo, Balx, Marv va Hindistongacha cho'zilgan edi. O'zaro urushlar va Xitoyning kuchayib ketishi natijasida 580-584 yillarda Tukyu davlati ikkiga: markazi Yettisuvda bo'lgan G'arbiy Tukyu va markazi Mo'g'ulistonda bo'lgan Sharqiy Tukyularga bo'linib ketadi.

Sharqiy Tukyu VII asrda Xitoyga qo'shib olingan bo'lsa, G'arbiy Tukyu ya'ni, hozirgi G'arbiy va Sharqiy Turkiston VII asrda dastlab Xitoyga qo'shib olinadi, arablar bostirib kelgandan keyin esa, VII asr o'rtalarida, arab xalifaligiga bo'ysundiriladi. G'arbiy Tukyuning shimoliy qismi (Yettisuvdagi qismi) bo'yso'ndiriladi, VII asrda o'g'uzlar va qarluqlar bosqinidan so'ng qarluqlar qo'lga o'tdi. Bu davlatning markazi Chu daryosi bo'yidagi Suyobda edi. O'g'uzlar g'arbga siljiy borib, VII asrda Sirdaryo

havzasidan Qoraqum cho'llarigacha cho'zilgan davlatlariga asos soldilar.

Tukyu davlati VII asrning o'rtalarigacha (628-745 yillar) yashadi, 745 yilda bu davlat uyg'urlar tomonidan butunlay mavh qilindi.

Tukyu davlatining tili haqidagi ma'lumotlarni rus olimlari tomonidan topilib, ancha to'liq va to'g'ri o'rganilganini Urxun-Yenisey yodgorliklari tadqiqidan bilish mumkin. Ayniqsa, akademik N.Yadrinsev tomonidan Mo'g'ilistonning Urxun vodiysidan topilib, o'rganib chiqilgan dalillari fanimizga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Toshga o'yib yozilgan O'rxun-Yenisey yodgorliklari bir qancha vaqt olimlar orasida muammo bo'lib turdi. Biroq XIX asrning oxirida daniyalik olim V. Tomsonn va rus olimi, V. V. Radlov o'zaro hamkorlik qilishib, bu yozuvlarni o'qishga muvaffaq bo'lishdi. Bunday yodgorliklarning eng kattalari quyidagilar:

1) eng qadimgi (692-693) yodgorlik Guduluxon sharafiga qo'yilgan Ongin toshi; 2) Kul Tegin sharafiga qo'yilgan (yoki Bilgaxon) yodgorligi (732); 3) YE. Klements 1897 yilda topgan Tunyuquq sharafiga qo'yilgan yodgorlik; 4) V. Kotvich tomonidan asoslangan bir oz kichik bo'lgan Kuli Chura yodgorligi.

2) Uyg'urlar ittifoqi 682-745 yillarda butun Sharqiy Tukyu davlati qabilalarini birlashtirdi. G'arbiy uyg'ur davlati turkiy qabilalari esa uyg'ur davlatiga hujum qildilar va 840 yilda uni qulatdilar.

3) 840 yildan X asrgacha Mo'g'uliston qora xitoylar ixtiyorida bo'lgan va bu davr qirg'izlar davri deb ataladi. Uyg'ur davlatining katta qismi qirg'izlar tomonga — g'arbga siljishdi va Jung'oristonga yangi uyg'ur davlati bo'lmish davlatlarini barpo etdilar.

Tukyularning bevosita avlodi bo'lgan uyg'urlar o'z tillarini aks ettiruvchi bir qancha yodgorliklar qoldirdilar. Bu yodgorliklar ikki davrga xos.

Birinchisi eng qadimgi yodgorliklar qabrtoshlariga o'yib yozilgan yozuvlar bo'lib, ular o'rxun yozuvlari bilan umumiyliklarga ega. Bu yodgorliklarni G. Ramsted ikkiga bo'lib o'rgangan: 1. Selinga toshi deb

ataluvchi Sheneusu chegarasidan topilgan yodgorlik (VII). Bu yozuv tukyular inqirozigacha bo'lgan yozuv. 2. Suji chegarasidagi yozuv bo'lib, u 840-862 yillar orasida bitilgan; uyg'urlar inqirozigacha bo'lgan yozuv hisoblanadi.

Ikkinchi davr yodgorliklari yozuvi bilan farqlanadi. Bu yodgorlik Selenga toshi nomi bilan atalib, so'g'dlar tomonidan qo'yilgan, ular esa uyg'urlar dini va diniy falsafiy mavzusidagi IX-X asrlarga oid manixey va budda yodgorliklaridir: o'sha davr adabiy tili haqida ma'lumot beradi. Bu davr yuridik hujjatlari esa abadiy til bilan xalq jonli tili orasidagi farqni belgilash uchun juda qimmatli ma'lumotlarni namoyon qiladi. Bu hujjatlar V asrdan VII asrgacha va X asr hamda undan keyingi davrlarga tegishli yodgorliklardir.

Uyg'ur tili va yozuvi keyingi davr abadiy tillari haqida ham ma'lumot beradi: birinchi navbatda, qoraxoniylar davri tili (XI- XII), undan keyin, o'g'uz qipchoq adabiy tili (XII-XIII), chig'atoy tili (XII-XIV), Oltin O'rda adabiy tili (XII-XIV), eski o'zbek tili (XV- XVI), eski turkman tili (XVII-XIX) haqidagi ma'lumotlarni bizning davrimizgacha yetkazib kelgan. Bu yozuvni hozirgi uyg'urlar o'zlashtirishgan va bugungi kunda ham undan foydalanadilar.

IX asr o'rtalarida ko'pgina turkiy qabilalar, ba'zi bir uyg'ur va qirg'iz qabilalaridan g'arbiy, g'arbga tomon siljidilar. Eng sharqdagi turkiy davlatlar - Mo'g'ulistondan qirg'izlar davlati, Jung'oristondagi tug'uz o'g'urlar davlati va qarluqlar davlatilari (chigil va jikil) Yettisuvdagi to'xsi, yag'mo va az qabilalarini birlashtirgan edi.

G'arb va janubda — Janubiy Turkistonda (Buxoro Samarqand, Xorazm, Farg'ona va Qashqadaryo) turkiy xalqlar (tukyu hamda tirgeshlarning avlodlari) eroniy xalqlar bilan aralash yashashar edi. Ular VII asrda arablar tomonidan istilo qilinib, Abbosiylar xalifaligiga, IX asr oxirida esa Somoniylar tarkibiga kirdilar. VII asr oxiriga kelib, Sirdaryoning quyi oqimidan Kaspiy dengizgacha bo'lgan hudud ko'chmanchi o'g'uzlarning

(to'g'uz g'uzlar, g'uzlar, uzlar) davlati, mavjud edi. Shimolroqda Yoyiq daryosining (Ural) sohillarida ko'chmanchi pechenyeglar yashar edi. Ularning Sharq va Shimoliy sharqida — Irtishning o'rta oqimida qo'miqlar (qipchoq va yomiq qabilalardan iborat) ko'chib yurardi. Qirg'izlar esa Eniseyda yashardi.

Bu davrdagi tukyu va uyg'ur xalqlarining ko'p yodgorliklari bizgacha yetib kelgan, biroq qadimiy turkiy xalqlar bo'lgan hazarlar, bulg'orlar va pechenyeglar tillarining IV-X asrlardagi holati haqida ma'lumotlar juda kam. Bu ma'lumotlar ham ayrim toponimik, onomastik nomlardagina saqlanib qolgan, shuningdek, Vizantiya, yevrey, arman, arab mualliflarining esdaliklarida, qabrtoshlarda, sopol idishlar devorlarida saqlanib qolgan.

Mavjud ma'lumotlarda turk davrining tili hamda uning fonetikasi hozirgi chuvash tiliga yaqin bo'lganligini ko'rsatadi. Bu til haqidagi eng so'nggi ma'lumotlar XIV asrga oid qabrtoshlarda, shuningdek, ancha keyingi davrlarda bitilgan yozuvlar slavyan-bulg'or nomlari tarkibidada saqlanib qolgan.

Shunday qilib, bu davrda eng kuchli qabila ittifoqlari g'arbda hazarlar, pechenyeglar, sharqda esa tukyular, qadimgi uyg'urlar va qirg'izlarga tegishli edi.

Qadimgi turk davrining eng xarakterli fonetik xususiyati $r \sim t/d \sim s/z$ $> y$ ekanligi bilan xarakterlanadi. Mahmud Koshg'ariyning guvohlik berishicha, $y \sim s/z$ mosligi IX asrga kelib faqat chigil qabilasi tilida saqlangan. Masalan, chigil lahjasida *qarin tozti* (boshqa qabila tillarida *qarin toydi*); *azaq* (boshqa qabila tillarida *ayaq*). Xunn davrigacha mo'g'ul tillarida mavjud bo'lganidek, hozirgi chuvash tilida ham bu holat saqlangan, Xunn davriga kelib turkiy tillardagi $t/d \sim s/z$ belgisi qadimgi va o'rta turk davrlariga kelib y belgiga almashdi. Hozir esa t/d va s/z belgilari turkiy tillardan d qolgan (a-ə, o-ə, i-i, u-γ). O'g'uz tillari bilan oltoy hamda qirg'iz tili orasida farqlar shundaki, sharqiy turkiy tillar mo'g'ul tili bilan qo'shnichilikda yashar ekan, undagi unlilar cho'ziqligini saqlab qoldilar. Bu

xususiyyat yoqut, tuva, karagas, xakas, shor tillarida saqlangan, ularning tillarida ham y qo'llanishi asta-sekin kuchaymoqda.

T/d va s/z ning y ga o'tishi hozirgi oltoy tilidagi so'z o'zaklarida ko'rinadi. Masalan, qiyoslang: qadimgi holat (*kuy* «kutmoq») oltoy tilida, boshqa turkiy tillar qadimdan boshlab (*kut* «kutmoq»); qoraqalpoq tilida soz «so'z» va *soyla-* «gapir-» (oltoy tilida *sos* «so'z», *sosto* «so'zla»).

Turkiy tillardan faqat oltoy, qirg'iz va o'g'uz tillari unlilarining qadimgi to'rttasini hozirgacha saqlagan oltoy, qirg'iz tillarida ko'rinadi.

Qadimgi o'g'uz (urxun), qadimgi uyg'ur va qadimgi qirg'iz (yenisey) yodgorliklari guvohlik berishicha, turkiy tillar qadimgi turk davrida bir qancha umumiy o'xshashliklarga ega edi. Bunday yaqinliklar so'z o'rtasi va oxirida *ð/m* ning *ũ~p* o'rnida qo'llanishida ko'rinadi, shuningdek, ular orasidagi yaqinlashish hodisasi *h/ç ~ ã* mosligida ham ko'zga tashlanadi.

Bunday holat hozirgi tillarda ham saqlangan, masalan, *қоң* «qo'y» ba'zi tillarda, *qoy* boshqa tillarda *qanda* ba'zi tillarda, *qayda* boshqa tillarda, shuningdek, ayrim tillarda *аһиэ*, boshqa tillarda *айыэ* «yomon».

Qadimgi turk tili yodgorliklari fonetik hamda morfologik xususiyyatlariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga qadimgi uyg'ur, o'g'uz, ya'ni urxun-yenisey yodgorliklari mansub bo'lib, ular quyidagi xususiyyatlarga ega edi: a) *h//h//ũ* undoshlarining so'z o'rtasi va oxirida kam farqlanishi; masalan, *аһыэ//айыэ//аһыэ* «ahmoq», «yomon»; *қоң//қон//қой* «qo'y»; b) so'z oxirida *э* o'rnida *б* qo'llanganligi, masalan, *sub* (*sug'* o'rnida), *аб* (*ав* o'rnida) v) so'z boshida *m//б* ning teng qo'llanishi, masalan, *бен//мен* «men»; g) ravishdoshning *-нан* (*-ын/-ун* shakllari o'rnida) shaklining qo'llanishi: d) ikkinchi shaxs qo'plikdagi o'tgan zamon qo'shimcha *-тыэ/-тыгыз*; II shaxs buyruq mayli *-сун/-чун*; j) istak mayli shakli *-сыэ*; yuklamaning modal ma'nosi erinch orqali ifodalangan.

Ikkinchi guruhga **qadimgi uyg'ur tili** kiradi va u ham ikki lahjaga bo'linadi: a) birinchisi *h-* belgili bo'lib, qadimgi uyg'ur *манIXей* (yoki

бyддa yodgorliklari)ni o'z ichiga oladi; ikkinchisi *ў*- belgili lahja hisoblanadi va unga man *IXeydan* keyingi yoki *budda* yodgorliklari deb ataluvchi *braxma* yozuvdagi *xristian* bitiklari kiradi.

H-lahjali yodgorliklar tili quyidagi xususiyatlarga ega: a) ayrim qo'shimchalarda *-ы/-и* qisqa unlilari o'rnida *a/ə* keng unlilarining qo'llanishi, masalan qurol-vosita kelishigi shakli *-ан/-ən* ning *-ын/*

-ун o'rnida, tushum kelishigi *-аэ/-əэ* ning *-ыз/-уз* o'rnida, mavhum egalik qo'shimchasi *-лаэ/-лээ* ning *-лыэ/-лиз* o'rnida, ko'plikdagi II shaxs egalik qo'shimchasi *-амаз/-эмэз* ning *-ымыз/-имиз* o'rnida va *-аңаз/-əңəз* ning *-ыңыз/-иңиз* o'rnida, I shaxs o'tgan zamon shaxs-son qo'shimchasi *-там/-тəм* нинг *-тым/-тим* o'rnida; II shaxs o'tgan zamon shaxs-son qo'shimchasi 2 ko'rinishda *-тыэ/-тыэуз* bo'lishi; ravishdosh qo'shimchalari *-нан* va *-ын/-ун*; buyruq mayli shakli *-суэ* shaklida qo'llanishi.

ў~з~з mosligining qoraxoniylar davridagi qo'llanilishini. M. Koshg'ariy sinchkovlik bilan o'rganganligi haqida guvohlik beradi: *azaq* «oyoq», *қазың* «qayin» — chigillar tilida; *azaq* «oyoq» — bulg'orlar, suvarlar, yomiqlar tilida; *ayaq* «oyoq», *qayin* «qayin» — o'g'uzlar, yag'molar, to'xsilar, qipchoqlar, tatarlar, yabaqu qabilalari tillarida.

O'g'uz, uyg'ur, qirg'iz tillarining keyingi taraqqiyoti bu tillarning ancha kech shakllanganligini ko'rsatadi; mazkur tillar grammatik, lug'at fondi va fonetik tizimining qadimgi holatini saqlash bilan birga, ma'lum o'zgarishlarga ham yuz tutgan.

Qadimgi turk davrda tillar *ə/m* belgili, *c/з* belgili va *ў* belgili guruhlariga bo'lingan. Bu guruh tillari Xunn davrida *p* belgili tillarga bo'linganligi bilan ham farqlangan; bunday farqlanish hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Qadimgi yozma yodgorliklar tillarining guvohlik berishicha, Qadimgi turk davrida *p* belgili tillar ko'p edi (bulg'orlar, hazarlar hamda qadimgi uyg'urlarning avlodlari tillari) va *ə/m ~ c/з* belgili tillar (qadimgi qirg'izlar tili, qadimgi o'g'uzlar tili hamda qadimgi uyg'urlar tili) ham asosiy o'rinni

egallar edi, *ū* belgili tillar esa ancha kech, asosan, Oʻrtaturk davrida, yaʼni X-XV asrlarda shakllandi.

Shunday qilib, Oʻrtaturk davrida, yaʼni X asrgacha eng katta qabila ittifoqlari mavjud edi, ularning tillarini quyidagicha tartiblash mumkin: a) gʻarbda — bulgʻorlar (hazarlar bilan), qipchoqlar, oʻgʻuzlar hamda qarluqlar tili tarqalgan. Bu toʻrt urugʻ-qabila ittifoqidan gʻarbiy turk tarmogʻiga kiruvchi hozirgi tillar yuzaga kelgan; b) sharqda — qadimgi uygʻur, oʻgʻuz va qirgʻizlar tillari mavjud edi, bu uch katta urugʻ-qabila ittifoqi tillaridan hozirgi gʻarbiy turkiy tillar shakllandi.

Oʻgʻuz tilining X-XI asrlardagi holati haqida dastlab M. Koshgʻariy maʼlumot beradi. Bu maʼlumotlar xoqon turklari yaʼni uygʻur tili bilan qiyosiy solishtirish natijasida amalga oshirilgan. Bu davrda qirgʻiz, qipchoq, oʻgʻuz, toʻxsi, yagʻmo, chigil, igʻroq, charuqlar tillari bir-biriga yaqin boʻlgan, yomiq va boshqirdlar tillari bir-biriga qorishgan edi. Shuningdek, qipchoq va oʻgʻuz tillari fonetik, leksik va grammatik jihatdan bir oʻzak tildan kelib chiqqan. M. Koshgʻariyning guvohlik berishicha, oʻgʻuz va qipchoqlar tillari X-XI asrlarda uygʻur tilidan quyidagi xususiyatlar bilan farqlangan:

1) soʻz boshida uygʻur tilidagi *y* qipchoq tilidagi *ж* ga oʻtgan yoki umuman tushib qolgan (masalan *oʻygʻ. йинжу>ўғуз. қірч. жинжу-инжу; йилиғ суғ>ылығ сув*, «iliq suv»;

2) soʻz boshida *m* ўғуз, qipchoq tillarida *ð*, uygʻur tilida *m* shaklida qoʻllanadi: mas. *мева* (uygʻur) > *дева* (qipch. ўғуз.);

3) soʻz boshida uygʻur tilida *m*, ўғуз, qipchoq tillarida *в* ga oʻtadi, mas., *мен* (uygʻur), *вен* (oʻgʻuz-qipchoq);

4) sifatdoshning kelasi zamon shakli uygʻur tilida *-ғу* (*барғу йур* «boradigan yer»), qipchoq, oʻgʻuz tillarida *-cu* (*барасы йур*) shaklida;

5) oʻtgan zamon sifatdoshi uygʻur tilida *-ған* (*барған*), oʻgʻuz tilida *-ан* (*баран*);

6) soʻz yasalihi uygʻur tilida *-zak/-zek (mamzak)*, qipchoq tilida *-ak (mamak)* «tomoq»;

X-XI asrlarda mavjud boʻlgan oʻgʻuzlar tili keyinchalik paydo boʻlgan quyidagi uch tarmoq oʻgʻuz tillariga asos boʻldi: a) sharqiy yoki asosiy oʻgʻuz tillari, yaʼni, soʻnggi davrlarda paydo boʻlgan turkman va truxman tillari; v) qadimgi uzlar va pecheneg tillaridan kelib chiqqan shimoliy oʻgʻuz tillari, yaʼni, hozirgi gagauzlar hamda bolqon turklari tillari; v) janubiy oʻgʻuz tillari, avval, saljuq, keyinroq, eski ozarbayjon hamda eski usmonli turk tillari va hozirgi ozarvoyjon, turk, qrim tatar tilining janubiy lahjasi tarzida yuzaga keldi. Shunday qilib, hozirgi oʻgʻuz tillari genetik jihatdan X-XI asrlar oʻgʻuz tillariga bogʻliq, bu esa ularning urxun-yenisey yodgorliklari tillarining biridan kelib chiqqanligini koʻrsatadi.

Oʻgʻuz-turkman kichik guruhiga kiruvchi tillarning qadimiyligini M.Koshgʻariy ham qayd qilgan. Bu kichik guruhga kiruvchi turkman va truxman tillari quyidagi belgilari bilan oʻgʻuz-saljuq kichik guruhi tillaridan farq qiladi:

fonetika sohasida:

a) turkman tilining ayrim lahjalarida til-tish undoshlari *c/3* undoshlari, turk tilida esa tish-tish undoshlari *c/3* mavjud. Masalan, *co3* (turkm.), *co3* (turk.) «cʻy3»;

b) turkman tilidagi *ø* turk tilidagi *b* ga oʻtishi: *øep* (turkm) *ber* (turk) «ber»;

b) turkman tilida birinchi fonologik choʻziqlikning mavjudligi (bunday holat sharqiy turkiy tillar tarmogʻiga kiruvchi tuva va yoqut tillarida ham bor) turk tilida esa bunday holat yoʻq;

g) keng unlilar uygʻunligi turkman tilida qonuniyat sifatida mavjud (*volon-volgʻon*), bu dalil turkman tilini sharqiy turkiy tillarga ancha yaqinligini koʻrsatadi), turk tilida bunday holat xarakterli emas.

d) parallel vazifali oʻzaklarning borligi : *øol-* va *ol-* «boʻlmoq», turk tilida faqat bir koʻrinish *ol-* mavjud.

g) I shaxs birlikdagi kishilik olmoshining birinchi jarangli sonor undoshi turkman tilida *m*, oʻgʻuz-saljuq tillarida jarangli, portlovchi *b* qoʻllanadi, masalan, *men* (turkm.), *ben* (turk.);

j) soʻz boshida til orqa, jarangli, portlovchi *z* oʻgʻuz-turkman tillarida, oʻgʻuz-saljuq tillarida esa til orqa, jarangsiz *q* oʻrnida qoʻllanishi *zuŭz* (turkm.), *qyz* (turk).

grammatika sohasida:

a) oʻgʻuz-turman kichik guruhi tilarida oʻtgan zamon sifatdosh qoʻshimchasi - *an//en*, (*-zan//-zan*), oʻgʻuz-saljuq kichik guruhi tillarida *-dyk//dik*, *-mysh//mysh*;

v) sifatdoshning boʻlishsiz shakli (kelasi zamon) *-map//mer*, *-maz//mez* tarzida qoʻllanadi: (oʻgʻuz-saljuq kichik guruhi tillarida *-map//mer*) shakllari qoʻllanmaydi;

v) hozirgi zamon shakli oʻgʻuz-turkman kichik guruhi tillarida *-ŭap*, *ŷŷyz*-saljuq kichik guruhi tillarida *-ŷop* shaklida qoʻllanadi;

g) kelasi zamon sifatdoshi oʻgʻuz-turkman kichik guruhi tillarida *a* orttirilib qoʻllanadi (*-aŷaq/-eŷek*), oʻgʻuz-saljuq kichik guruhi tillarida esa *a* tushib qoladi (*-ŷaq//ŷek*);

d) ravishdosh shakllari oxirida keladaigan *ŷ* oʻgʻuz-turkman kichik guruhi tillarida tushib qoladi (*okyn* «oʻqib», *vermen* «vermay»), oʻgʻuz-saljuq kichik guruhi tillarida saqlanadi. (*okyun*, *vermeyun*).

Shunday qilib, hozirgi oʻgʻuz tillari genetik jihatdan X-XI asrlar oʻgʻuz tillariga bogʻliq, bu esa ularning urxun-yenisey yodgorliklari tillarining biridan kelib chiqqanligini koʻrsatadi.

Xullas, qadimgi umumturkiy yozma manbalarning leksik va fonetik-grammatik tomondan oʻrganishga V.V.Radlov, V.Tomsen, G.Vamberi, P.M. Melioranskiy, V.Bang kabi olimlar ilk bor qoʻl urishgan. Ularning asarlarida qadimgi turkiy tilning fonetik-grammatik va baʼzi bir leksik, etnik xususiyatlari haqida maʼlumotlar berilgan. Qadimgi turkiy tili yodgorliklarini oʻrganishga qiziqish kuchaya bordi va qayd etilgan qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi.

II BOB. QADIMGI UMUMTURKIY YOZMA ADABIY TILI (XI-XIV ASRLAR)

2.1. XI-XIV asrlar birinchi yarmi o'zbek yozma adabiy tilining fonetik xususiyatlarini belgilash

XI-XIV asrlardagi arab tilida yozilgan manbalarida ham O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi tarixiga va ularning tili bo'yicha ilk ma'lumotlar mavjud bo'lib, ko'pchiligi fan olamida tanilgan olimlarimizning ilmiy-tarixiy meroslarida o'z aksini topgan.

Ta'kidlash joizki, ishda, ya'ni o'zbek tilining tarixiy fonetikasi bo'yicha ba'zi tadqiqotlarda muhim ma'lumotlar mavjud. Jumladan, yuqorida ko'rsatilgan yozma manbalarning fonetik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ba'zi bir ishlar amalga oshirilgan. Ammo o'zbek tilshunosligida ko'rsatilgan asarlarni fonetik jihatdan hali yetarli darajada o'rganilgan deb bo'lmaydi. Ushbu bobda XI-XIV asrlar birinchi yarmi o'zbek yozma adabiy tilining fonetik xususiyatlarini belgilashda ko'rsatilgan yozma manbalar matni umumlashtirib tahlil etildi va shu jarayonda amalga oshirilgan tadqiqotlar ham inobatga olinib ba'zi bir mulohazalar bildirildi.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili taraqqiyotini o'rganishda, ayniqsa, VII-X asrlar alohida o'rin egallaydi, chunki bu davrlar tili haqida aniq yozma manbalar mavjud. Bu davrlarda yaratilgan va bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklar umumturkiy elatlar tarixini va ular tilining ilk yozma shaklini o'rganish uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslarning fikrlaricha, bitiglarda qo'llangan yozuv va til tuzilishi ancha pishiq, uslub va grammatik jihatdan ma'lum bir qoidalar asosida shakllangan.

XI-XII asrlardagi ba'zi yozma manbalarda qadimgi yozuvlar haqida ba'zi bir ma'lumotlarni uchratish mumkin. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida uyg'urlarning ikki xildagi alifbo yozuvi bo'lganligi va birida 24 ta, ikkinchisida 16(18) ta undosh fonemasi borligi haqida fikr bildirilgan. Ana shu

so‘nggi alifbo yozuvi haqidagi fikr qadimgi turkiy-run yozuviga to‘g‘ri keladi. Bu yozuv Turfon yodgorliklari, uyg‘urlarning qadimgi yuridik hujjatlari yozuvini ham eslatadi¹⁰. Shuningdek, bu borada o‘tmish tarixshunoslari Faxriddin Muborakshoh Marvarudning va Alauddin Ota Malik bin Muhammad Juvayniylarning ma’lumoti ham xarakterlidir. Qoshg‘ariydan so‘ng fors tarixchi-sayyoh Alauddin Otamalik bin Muhammad Juvayniy o‘zining “Tarixi jahonkushay” (hijriy 658, milodiy 1260 yillarda yozilgan) asaridagi, Mo‘g‘ilistondagi Qoraqurum hududidagi O‘rda baliq (Ma’baliq) shahri harobalaridan topilgan yozuv yodgorligi haqidagi ma’lumotlar ham qadimgi turkiy (uyg‘urlarning VIII-X asrlariga xos) run yozuvini eslatadi¹¹. Bu fikrlar taxminiy tarzda aytilgan bo‘lsa-da, qadimgi turkiy tilga xos ilk ma’lumotlar sifatida inobatga olinishi lozimdir.

A.N. Kononov yozishicha, O‘rxun-Enasoy yozuvi yodgorliklari tilining morfologik hamda sintaktik jihatdan pishiqligi, ancha taraqqiy etganligi shundan dalolat beradiki, bu til adabiy til sifatida ancha qadimdan qo‘llangan bo‘lib, unda bir qancha badiiy asarlar ham yaratilgan bo‘lishi mumkin. Afsuski, bu yozma yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan, deb yozgan edi. Olimning fikricha, turkiy-runiy yozuvi yodgorliklarida aks etgan yozma adabiy til, jumladan, O‘rxun bitiklari tili yirik qabilaviy birlashma tuzilmasidagi elatlarning ichki hayotida turli yozishmalarda qat’iy amalda bo‘lgan og‘zaki-epik an’analari ta’sirida yuzaga kelgan va taraqqiy etgan deb, to‘liq ishonch bilan aytish mumkin¹². Bu kabi fikrlar boshqa olimlar asarlarida ham ta’kidlangan. Bitiglar tilining grammatik va uslub jihatdan mukammal bo‘lishi shundan dalolat beradiki, bu til, Kushon davlati davrida, balki undan ham oldinroq shakllangandir¹³. Bu kabi taxminiy fikrlarning kelib chiqishining sababi shundaki, bitiglarda qo‘llangan yozuv va til qurilishi tizimining ancha pishiq shakllanganligidandir.

¹⁰ Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников «VII-IX вв.» - С. 8-9.

¹¹ Кононов А.Н. Кўрсатилган асар. -8-9 бб.

¹² Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников «УП-IX вв.» - С.3.

¹³ Кляшторный С.Г. Эпоха Махмуда Кошгарского.//Ж.Советская тюркология.-Баку, 1972. -№ 1. -С.26; Абдурахмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. -26, 39 бб.; Сулайманов О. Аз и Я. -Алма Ата.: Жалым, 1990.(<http://www.rsl.ru.yazikoznaniye>)-518-519,542-544 бб.

Demak, VII-X asrlarda ancha mukammal shakllangan qadimgi umumturkiy adabiy til, barcha turkiy tillar kabi, eski o'zbek yozma adabiy tilining ilk ildizi bo'lganligi aniq. Bu til o'sha davrlarda Markaziy Osiyo, Shimoliy Mo'g'uliston, Oltoy, Xuroson, Kavkaz, Sharqiy Yevropa, Rossiyaning janubiy qismi, Sibirgacha borib taqalgan butun turkiy urug' va qabilalar uchun yagona umumtil hisoblangan¹⁴. Bu til Turkiy hoqonliklari davridan keyin (IX-X asrlardan so'ng) ham turkiy urug' va qabilalar orasida qo'llangan.

Turkologiyada "Qutadg'u bilig" tilini aniqlash masalasida yakdillik yo'q. Ushbu masala bo'yicha turfa mulohazalar mavjud. Ular xususida A.N.Kononov "Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" poemasi" maqolasida batafsil ma'lumot keltirgani bois, masalaga ortiqcha to'xtalishning hojati yo'q, deb hisoblaymiz. Ayni chog'da olimning doston tilini oliy fazilati jihatdan xoqoniy, sulolaviy belgisiga ko'ra qoraxoniylar turkiy, qoraxoniylar uyg'ur, qabilaviy jihatdan qarluq, tarixiy-madaniy belgisiga ko'ra esa qarluq- uyg'ur tili tarzida atashning maqsadga muvofiqligi haqidagi fikrini keltirish lozim bo'ladi. Atoqli turkologning 13 ming misradan ortiq hajmga ega asarining arab va fors poetik an'alariga asoslangan holda yuzaga kelgan, degan ba'zi taxminlar hech qanday asosga ega emasligi haqidagi fikri obyektivligi bilan xarakterlanadi¹⁵.

Modomiki, Yusuf Xos Hojib dostonining til xususiyatlari haqida so'z yuritilgan ekan, tabiiy, bu borada S.Mutallibovning qarashini inobatga olish lozim. Olimning "Qutadg'u bilig"ning yuzaga chiqishi, qaysi qabila tiliga oidligi, ba'zi affiksli so'zlarning yasalishi, funksiyasi va ma'nosi to'g'risidagi mulohazasi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

"Devonu lug'otit turk"ni nashrga tayyorlagan zahmatkash tilshunos Mutallibovning ta'kidlashicha, doston qoraxoniylar davri tilini sistemaga solishga, mustahkamlashga, adabiy tilni rivojlantirishga xizmat qilgan. Unda ijtimoiy hayotda voqelangan yangiliklar til faktlari asosida aks ettirilgan. Asar tili adabiy til namunasi. Olim asar tilining qaysi shevaga oidligi haqidagi masalaga to'xtalib,

¹⁴ Абдурахмонов Ф. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида.-Т.: ТДШИ, 1999.-24 б.

¹⁵ Қаранг: Кононов А.Н. Поэма Юсуфа Баласагунского "Благодатное знание"// Юсуф Баласагунский. Благодатное знание. Издание подготовил Иванов С.Н. – М.: Наука,1983. –С.495-527.

turkologiyada asarga xoqoniy turklari tilining asos bo'lganligi borasidagi fikrlarni behad qo'pol xato, deb hisoblaydi, "Qutadg'u bilig"ning qoraxoniylar saltanatida asosiy rol o'ynagan chigil qabilalari tili asosida yozilgan, degan g'oyani ilgari suradi. Olim Mutallibov asar muallifi turli fonetik, morfologik va grammatik xususiyatlarni yangi so'zlarda qo'llab, tildagi qoidalarni tanitishga va umumlashtirishga xizmat qilganligiga alohida diqqat qaratadi. Yusuf Xos Hojibning -chi, -g'u affikslar yordamida yasalgan so'zlarning ma'no qirralari, juft so'zlar semantikasi, sinonimlardan stilistik maqsadlarda foydalanish mahoratini misollarga suyanan holda bayon etadi. Doston o'z davrining yuksak badiiy asari ekanligini e'tirof etadi¹⁶.

Ma'lumki, o'tgan asrning ikkinchi yarmida VII-XIII asrlarga taalluqli ko'pdan-ko'p turkiy obidalar negizida fundamental xarakterdagi "Qadimgi turkiy lug'at" dunyo yuzini ko'rdi. Lug'atga kiritilgan yigirma mingdan ortiq so'zlarning muayyan qismi "Qutadg'u bilig"dan olingan¹⁷. C.Malov, A.Borovkov, E.Tenishev, A.Shcherbak, D.Nasilov tomonidan tuzilgan ushbu lug'at to'g'risida mulohaza bildirgan E.Fozilov, asarda qo'llangan 2854 ta so'z va so'z birikmasining lug'atga kiritilgani, V.Radlov, S.Malov izlanishlariga kiritilgan o'zgartirish, to'g'rilash va qo'shimchalarning katta mehnat evaziga oshirilganini e'tirof etadi. U lug'at tuzuvchilar tomonidan "Qutadg'u bilig"leksikasi bo'yicha yo'l qo'yilgan ba'zi kamchiliklarga diqqat qaratgan. Chunonchi, uning ta'kidlashicha, 1) doston matnidagi 44 so'z; 2) 34 so'z birikmasi lug'atdan o'rin olmagan; 3) 16 leksik birlikning ma'nosini izohlashda noaniqlik mavjud; 4) lug'at maqolalarida so'zning barcha ma'nolari berilmagan; 5) tasdiqlovchi misollar tarjimasida noaniqliklar bor; 6) sitata va transkripsiyada qusurlar ko'zga tashlanadi¹⁸. E.Fozilovning ushbu mulohazalari "Qutadg'u bilig" lug'atini tuzishda qo'l kelishi shubhasiz.

¹⁶ Қаранг: Юсуф Хос Ҳожиб ва унинг дидактик асари "Қутадғу билиг" ҳақида. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том / Таржимон ва нашрга тайёрловчи филология фанлари номзоди С.М. Муталлибов. – Тошкент, 1960. – Б. 8-15.

¹⁷ Древнетюркский словарь. – Л., 1969.

¹⁸ Фазылов Э.И. Лексика "Қутадғу билиг" в Древнетюркском словаре// Советская тюркология. – Баку, 1970. – № 4. – С.48-55.

“Qutadg‘u bilig”ning lingvistik xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida maxsus tadqiqot obyektiga aylangan¹⁹.

Didaktik asarning uyg‘ur yozuvli nusxasi asosida bajarilgan mazkur izlanishda manbaning fonetik-grafik, morfologik va leksik xosliklari tadqiq etilgan. Yusuf Xos Hojib asarida to‘qqizta unlining mavjudligi, singarmonizm qonuniyatining qat’iy amal qilinishi, uyg‘ur yozuvi harflarining asardagi vazifasi masalasi boy ashyoviy materiallar misolida talqin qilingan. Obida tili morfologik strukturasining o‘ziga xos xususiyatlari, so‘z turkumlari kategoriyalari, yasaliş yo‘llari nuqtai nazaridan bayon etilgan. Asar leksikasi xususiyatlari semasiologik jihatdan tahlil qilingan, hozirgi o‘zbek tiliga o‘rni bilan solishtirilgan. Asar so‘z boyligi 21 mavzuiy guruhga taqsimlangan. Belgi-xususiyatni ifodalovchi sifatlar: 1) inson xarakter- xususiyatini ifodalovchi so‘zlar; 2) narsa-predmet xususiyatini anglatuvchi so‘zlar; 3) rang bildiruvchi so‘zlarga bo‘lingan. Birinchi guruh o‘z navbatida ijobiy xususiyatlar (**алл** “qahramon”, **тоңа** “qo‘rqmas, botir”) hamda salbiy xususiyatlar (**йуңзақчы** “sotqin”, **ачучы** “tuhmatchi”) ifodalovchi so‘zlarga ajratilgan.

Dostonning morfologik xususiyatlari, xususan, fe‘l kategoriyasiga doir jihatlari bir qancha turkologlarning diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Jumladan, Q.Sodiqovning “Qutadg‘u bilig” tilida fe‘l” nomli maqolasida fe‘lning sifatdash va ravishdosh funksional shakllari, zamonlari, mayllari, majhul va ortirma darajalari, ularning ifodalanish yo‘llari, fe‘llarning yasaliş haqida mulohaza yuritilgan.

Yodgorlik tilining xarakterli tomonlaridan biri, ya’ni XI asr turkiy dialektlarga taalluqli grammatik formalar, fonetik variantlar hamda morfologik birliklarning asarda parallel qo‘llanilishi aniqlangan²⁰.

Tilshunoslar “Qutadg‘u bilig” tilidagi fe‘l kategoriyasiga oid leksik birliklarni grammatika nuqtai nazaridan nafaqat umumiy, shuningdek, xususiy,

¹⁹ Садыков К. Языковые особенности “Кутадгу билиг” (на материале уйгурописьменного списка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987. – С. 27.

²⁰ Садыков К. Глагол в языке “Кутадгу билиг”// Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Ташкент: Фан, 1994. – С. 90-106; Яна қараң: Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 320 б.

ya'ni muayyan fe'l-so'zning gap qurilishidagi ishtiroki, boshqa ma'nodoshlari bilan muayyan paradigmani hosil qilish jihatlari borasida ham izlanishlar olib bormoqdalar. Chunonchi, "Devon" va "Qutadg'u bilig" matnida **au**= fe'lli vositasiz gaplar tahliliga oid maqola shular sirasidandir.

O'zbek tilining ilk shakllanish ildizlarini o'rganmay turib, o'zbek yozma adabiy tilining keyingi taraqqiyot davri til qurilishini belgilash qiyin va bu masala bo'yicha to'g'ri xulosa chiqarish mushkul bo'ladi. Demak, birinchi galda o'zbek yozma adabiy tilining ilk ildizi sanalgan VII-X asrlar manbalarini lisoniy jihatdan qiyoslab o'rganish lozim. Qadimgi yozma manbalarni lisoniy xususiyatlarini yoritishdan oldin, ular haqida ba'zi bir ma'lumotlar berish o'rinlidir.

2.2. XI-XIV asrlarda yaratilgan asarlarda unli fonemalar

XI-XIV asrlardagi arab tilida yozilgan manbalarida ham O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi tarixiga va ularning tili bo'yicha ilk ma'lumotlar mavjud bo'lib, ko'pchiligi fan olamida tanilgan olimlarimizning ilmiy-tarixiy meroslarida o'z aksini topgan.

O'zbek tilining tarixiy fonetikasi bo'yicha ba'zi tadqiqotlarda muhim ma'lumotlar mavjud bo'lib, yozma manbalarining fonetik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ba'zi bir ishlar amalga oshirilgan. XI-XIV asrlar birinchi yarmi o'zbek yozma adabiy tilining fonetik xususiyatlarini belgilashda ko'rsatilgan yozma manbalar matni umumlashtirib, shu jarayonda amalga oshirilgan tadqiqotlarni inobatga olgan holda **unli fonemalar bo'yicha** quyidagi fikr mulohazalarni qayd etmoqchimiz: umumturkiy tilning XI-XII asrlar tilida ham qadimgi turkiy tildagi unlilar saqlangan²¹. Jumladan, bu davr (XI-XII asrlar) yodgorliklarida ham til oldi **ə, ö, ʏ, и** va til orqa **а, о, у, ы** fonemalar kuzatiladi. Bulardan 4 tasi (**о, у, ö, ʏ**) lablangan va 4 tasi (**а, ə, ы, и**) lablanmagan fonemalar sanaladi. Umuman, unlilarning ana shu tasnifiga ko'ra XI-XII asrlar tilida 8 unli mavjud deb

²¹ Неематов. Ҳ Ӱзбек тили тарихий фонетикаси. -15 б.

belgilandi²². Keyinroq XIII-XIV asrlardan boshlab til oldi lablanmagan (ä)ə unli fonemasining varianti sifatida til oldi, oʻrta keng, lablanmagan ə(ę) unlisi ham soʻzning old boʻgʻinida vujudga keladi va til orqa lablanmagan keng unli **a** fonemasining varianti sifatida til orqa keng unlisi **â(o)** fonemasi ham (hozirgi o unlisiga yaqin) yuzaga kela boshlagan. Shuning uchun ham, Q.Mahmudov XIII-XIV asrlar yozma yodgorliklari tilida 10 ta mustaqil unli fonemasi bor deb qayd etgan²³. Bizningcha, XI-XIV asrlar eski oʻzbek yozma adabiy tili bosqichining yodgorliklarida 8-9 ta unli mavjud boʻlgan. Ammo “Qutadgʻu bilig” va “Devonu lugʻotit turk” asarlari tilida 8 ta mustaqil unli qoʻllanganligini qayd etish lozim. Chunki bu asarlar uchun ə(ę) til oldi, oʻrta keng, lablanmagan unlisi mustaqil fonema sifatida xarakterli boʻlmagan. XIII-XIV asrlardagi yozma yodgorliklarining baʼzisida ə(ę) til oldi, oʻrta keng, lablanmagan unlisi variant holda uchraydi. Bu unli hali eski oʻzbek tili yodgorliklarida ham mustaqil fonema shakliga toʻliq oʻtmagan edi. Bu unli qadimgi turkiy tilning VII-X asrlar bosqichida ham baʼzi soʻzlarning birinchi boʻgʻinida uchrashi qayd etilsa-da, aslida u qadimgi davrlarda variant tarzida ham shakllanmagan edi. Eski oʻzbek yozma adabiy tili yodgorliklarida esa bu unli variant holda shakllana boshlagan. Har holda, “Qutadgʻu bilig”, “Devonu lugʻotit turk”, “Hibat-ul haqoyiq” kabi asarlar tilida bu unli mustaqil fonema sifatida qoʻllangan deb boʻlmaydi. Shuningdek, **â(o)** fonemasi esa bu davrlar tili uchun xarakterli boʻlmagan. Bu fonema XIV asr ikkinchi yarmidan boshlab keng qoʻllanila boshlangan. Xullas, oʻzbek yozma yodgorliklarida baʼzi soʻzlarda til orqa **â(o)** va ə unlilari uchrasa-da, ular hali fonema holda shakllangan emas edi, balki **a**, **ə** fonemalarining varianti holda yuzaga kela boshlagan.

²² Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X-XIII вв. из Восточного Туркестана. - С.35.

²³ Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. 6-7-бб.;

XI-XIV asrlarning yodgorliklari tilida qoʻllangan unli fonemalar



Tilning koʻtarilish oʻrniga koʻra		til orqa (qattiq)		til oldi (yumshoq)	
Labning ishtirokiga koʻra		lablangan	lablanmagan	lablangan	lablanmagan
Tilning koʻtarilish holatiga koʻra	Keng unlilar		a (ǎ)		ə
	Oʻrta keng (yoki yarim tor) unlilar	o		ö	(ə)
	Tor unlilar	y	ы	Y	и

tufaylidir. Umuman, yozuvning beqiyos ahamiyati, uning kishilik aloqasidagi oʻrnining naqadar katta ekanligi bugun barcha uchun ravshan haqiqatdir.

Shuningdek, “Qutadgʻu bilig”, “Devonu lugʻotit turk” asarlari tilida 8-ta mustaqil unli shakllanganligi. Chunonchi, “Devonu lugʻotit turk” asarida berilgan maʼlumotlar XI-XII asrlar tilidagi unlilar soni belgilashda xarakterlidir. Taʼkidlash joizki, devonda fonema bilan harf tushunchalarining farqi fonetik qonun sifatida tushunilgan, yaʼni fonemaning soʻz maʼnosini farqlash uchun xizmat qiluvchi nutq tovushlari va sotsial qiymatga ega boʻlgan tilning eng kichik asosiy birligi ekanligi anglashiladi. Buni devondagi misollar tahlilidan yaqqol sezish mumkin. Chunonchi, **6ö3**-boʻz yumshoq (yaʼni, til oldi, lablangan) **ö(ÿ)** unli bilan kelganda **material, mato turi** maʼnosida, **6o3**-boʻz qattiq (yaʼni, til orqa, lablangan) **o(ÿ)** unli bilan kelgan **boʻz yer** va **rang** (kulrang) maʼnolarida; **Yr**-ut yumshoq talaffuz etiladigan til oldi lablangan **y(y)** bilan kelgan **oʻyinda utish-yutish** maʼnosida, **yr**-qattiq talaffuz etiladigan til orqa **y** unlisi bilan kelganda esa **туртмоқ феъли** maʼnosida koʻllanilganligi haqida koʻpgina maʼlumotlar bor. Bu soʻzlar tarkibidagi **o/ö, y/y** unlilari nutqda oʻziga xos farqlanuvchi talaffuzga egaligi bilan har qaysisi

alohida mustaqil fonema sanalgan va ular yozuvda to'rt harfni talab etgan, ya'ni qattiq talaffuzli til orqa, lablangan **o**, **y** unli fonemalari hamda **ö**, **ү** yumshoq talaffuzli til oldi lablangan unli fonemalari kabi. Bunday xususiyatlar eski o'zbek tilining barcha davrlarida saqlangan, hozirgi o'zbek dialekt va shevalarida ham mavjud.

Umuman, qadimgi umumturkiy yodgorliklar tilidagi unli fonemalar bilan eski o'zbek tili bosqichidagi unlilarda ba'zi bir farqli xususiyatlar mavjud bo'lsa-da, ularda mushtaraklik jihati ustun. Chunki qadimgi umumturkiy tildagi unlilar va ularga xos fonetik xususiyatlar o'zbek tilining ilk shakllanish bosqichiga asos bo'ldi.

2.3. XI-XIV asrlarda yaratilgan asarlarda undosh fonemalar

Undosh fonemalar bo'yicha ham xuddi shu xususiyatlarni kuzatish mumkin. Qadimgi turkiy bitiglar tilida, undosh soni eski o'zbek yozma adabiy tili bosqichida ortib borgan. Yodgorliklar tilida 25-26 ta undosh tovushlari borligi qayd etiladi²⁴. Jumladan, eski o'zbek tilining dastlabki davrlarida, chunonchi, Mahmud Koshg'ariy devonida ham yozilishicha, 18-19 ta mustaqil undosh fonemalari uchun maxsus belgilar mavjud bo'lgan²⁵. Koshg'ariy tomonidan izohga ko'ra, XI-XII asrlar tilidagi undoshlar soni qadimgi turkiy davridagiga mos keladi. Lekin olimning yozishicha, o'sha davrlarda alifbodagi 18 ta harf turkiy tildagi nutq tovushlarini to'liq aks ettirmagan²⁶. Demak, Mahmud Koshg'ariy davrida turkiy til fonetikasi tarkibida o'zgarishlar sodir bo'lgan, fonemalar soni ortgan.

Bu o'zgarishlar quyidagilar bilan izohlanishi mumkin: qadimgi turkiy bitiglar tilida **b**, **d**, **y**, **l**, **n**, **r**, **s**, **t** kabi undoshlarning har qaysisi ikkitadan fonema sanalsa, eski o'zbek tili yodgorliklarida ular bittadan fonemani anglatgan. Shu kabi faqat **к** bilan **к** va **ғ** bilan **г** undoshlari orasidagi qattiq va yumshoq talaffuz xususiyatigina

²⁴ Неъматов Х. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. - 60-61 бб.; Махмудов Қ. Аҳмад Югнакийнинг "Хиба-ул-хақойиқ" асари ҳақида. - 43-73 бб.

²⁵ Муталлибов С. Кўрсатилган автореферат. -18 б.

²⁶ Махмуд Кошғарий.Девону луғотит турк. 1-т. -48-49 бб.

saqlangan²⁷. Ikkinchidan, qadimgi turkiy bitiglardagi nl, nt, nch, lt, mt undoshlar eski o'zbek tilida saqlanmagan, bo'linb ketgan. Bu boqichda ba'zi tovushlarning talaffuz holatlaridagi o'zgarishni yana quyidagi fonemalarda kuzatish mumkin. Xususan, qadimgi turkiy tildagi lab-lab **б** undoshi inlaut va auslaut pozitsiyalarida turkiy tilning so'nggi davrlarida (X-XIII asrlarda) lab tish w(v) tovushiga o'tgan²⁸ (aniqrog'i **в** talaffuzli holatida qo'llangan) ligini qayd etgan edik. Масалан, **убут** (Тўн.37), **урут** (МК.ДЛТ.1-т.65-б), **сәбчи** (Ирк б. 16), **сәwчи** (ПабҒ.119а.), **суб** (МўҒ.20), **сyw/сyв** (Таф.86а .ПабҒ. 2а) kabi. Umumturkiy tilning so'nggi davrdagi yozma adabiy tilida yuz bergan bunday o'zgarishlar eski o'zbek yozma adabiy tili bosqichidan boshlangan. Buni "Devonu lug'otit turk", "Tafsir", "Qisasi ar Rabg'uziy va boshqa asarlardan keltirilgan misollar to'liq tasdiqlaydi.

²⁷ Ne'matov H. Ko'rsatilgan asar. -60 b.

²⁸ Маҳмудов Қ. XIII-XIV аср ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. -6-7 бб.

XI-XIV asrlar yodgorliklari tilida qoʻllangan undosh fonemalar

ovozning ishtirokiga ko‘ra	paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra		til oldi lab tovushlari	til oldi	til o‘rta	yaqin til orqa	chuqur til orqa
	aytilish usuliga ko‘ra						
Jarang- siz	portlovchi		p	t		k	q
	sirg‘aluvchi		f	s, sh		h	x
	affrikat				ch		
Jarangli	portlovchi		b	d		g	g‘
	sirg‘aluvchi		v	z, j, (δ)			
	affrikat				Ж(dj)		
Sonor-lar	portlovchi burun		m	n		ng‘(ŋ)	ng(н)
	sirg‘aluvchi	yon		L(л)	y		
		titroq		r			

Eski oʻzbek yozma adabiy tili bosqichidagi yodgorliklarda soʻz oxirida kelgan jarangsiz undoshlarning jaranglashishi ham ancha sezilarlidir. Masalan, bu holni “Qutadgʻu bilig” tilida kuzatish mumkin: Biliglig, bilig, бышығ, башығ, (QB.-136. 1656.), тилиғ (QB.136.171.), бушақлық (QB.19a.326.), сақлық (QB.226.436.), амуллуқ (QB.276.570.) kabilar. Bunday hodisani keyingi davr asarlarida ham kuzatish mumkin.

“Devonu lugʻotit turk” da turkiy qabilalar tillarida qoʻllangan soʻzlardagi undoshlarning tor va kenglik, qattiq va yumshoqlik, ikki undoshning qator kelishi, yondash undoshlarniing oʻzaro moslashuvi, tushib qolishi kabi fonetik hodisalar

misollar orqali tahlil etilgan (МК.1-т.66-69-б.).

Ba'zi asarlarda qadimgi turkiy tilda uchraydigan **р, н, л** kabi dialektal xususiyatlarni (ya'ni **й** o'rnida **р, н, л** undoshlarining qo'llanilishini) ham kuzatish mumkin. N.A.Baskakovning tadqiqotlarida bu haqda keng ma'lumotlar berilgan²⁹. Jumladan, Mahmud Koshg'ariyning devonida ham bu haqda muhim ma'lumotlar uchraydi³⁰.

Ayniqsa, Mahmud Koshg'ariy devonida ba'zi bir tovush almashinuvi natijasida turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida hosil bo'lgan bir xil ma'nodagi qo'sh shaklli so'zlarning hosil bo'lish tarixi haqida muhim ma'lumotlarni kuzatish mumkin. Jumladan, **чөчишди, чалышды, чөкди, чөккә** (tiz cho'k) so'zlari qadimda **сүчүшди** (МК.2-т.98-б.), **салышды** ва **сөкди, сөккә** (МК.2-т.122-б.) shaklida ham qo'llangan. Eski va hozirgi tilimizdagi **сач-чач, сачышды-чачышды, сычқан-чычқан, мүсичә-мүчичә, сачақ-чачақ, сапчыш-чапчыш, сандан-чандон, сачалы-чачалы** (МК.2-т.29-б.) kabi bir qator so'zlar qadimgi turkiy tildan saqlanib qolgan.

Ta'kidlash joizki, Koshg'ariy so'z yasashda yoki ma'nodosh so'z shakllarini hosil qilishda fonetikaning hissasini seza olgan. Shuning uchun ham devonda juda ko'p so'zlar borki, shu usulda talqin etilgan³¹. Masalan, **сағурды** (МК.2-т.84-б.), **өпди** (МК.1-т.176-б.), **қарықты** (МК.2-т.30-б.), **азнады** (МК.1-т.234-б.) so'zlarning fonetik shakllari izohlanadi. Chunonchi, **сағурды** so'zi **симүрди/симири** (МК.2-т.90-б.) shaklida ham berilgan. Bu so'zning **сағурды** shakli hozirgi o'zbek tilida qo'llanilmaydi. Ammo **шымырмақ** (shimirmoq/simirmoq), **шымымақ** (shimimoq) kabi shakllari bor. Devonda opmaq so'zi **о** fonemasining qattiq va yumshoq talaffuzi natijasida ikki ma'noda (ya'ni **о'рмоқ** va **ичмоқ**) ma'noda qo'llangan: ol мәни **опды** -y meni o'pdi (МК.1-т.176-б.); **Мун өпди**-sho'rvа ichdi (МК.1-т.176-б.) kabi. Bu so'z eski o'zbek tilining boshqa yodgorliklarida ham uchrasa-da, asosan, o'pish-o'pmoq ma'nosida keng qo'llanadi. Devonda **үпүрди** (МК.1.186-б.), **өпләди** (МК.1-

²⁹ Баскаков Н.А. Тюркский язык.-М.: Изд.вост.лит.,1966. -С.30.

³⁰ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-т. -66-69 бб.

³¹ Қаранг: Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 2-т. - 84 , 89, 90 бб.

т.281-б.) shakllari qo'llangan bo'lsa, keyingi davrlar tilida **хопламақ** tarzida uchraydi. **Қарықты** (МК.2-т.30-б) so'zi-қамашды, **чәрчәди** (харықды) ma'nolarida izohlangan. Bu ma'nodagi sinonim so'zlar hozir ham mavjud, ammo **қарықты/харыды** shakllari shevalarda uchraydi. **Азнади** (МК.1-т.234-б.) shaklidagi so'z esa uchramaydi. Balki bu so'z eski o'zbek va hozirgi tildagi **айниди** shakliga mos keladi. Devonda bu kabi misollar ko'p. Darhaqiqat, til taraqqiyoti jarayonida lug'atlarda ko'pgina so'z shakllarining fonetik jihati ham, leksik ma'nolari ham o'zgarishlarga uchrab kelgan. Bunday so'zlarning asl shakllari va ma'nolari tarixini, umuman, etnik xususiyatini o'rganishda fonetik qonuniyatlar muhim o'rin tutadi. Devonni o'rganish bilan birga Mahmud Koshg'ariy bu qonuniyatni yaxshi tushunganligini anglash mumkin.

UMUMIY XULOSA

1. Til tarixini o'rganishda asos bo'lgan yozma manbalarni avvalo lisoniy jihatdan ma'lum davrlarga xosligini belgilash muhim o'rin egallaydi. Shu bois tilshunoslar til tarixini va yozma yodgorliklarni davrlashtirib o'rganish masalasiga alohida e'tibor berishgan. Magistrlik dissertatsiyasi uchun asos manba qilib olingan yozma yodgorliklarni ilk bor davrlashtirish asosida talqin etildi.

2. Yozma manbalar tilining tahlili shundan dalolat beradiki, umumturkiy til XI-XIV asrlarga kelib ancha taraqqiy etgan. Bu davrlarda yaratilgan asarlarda qadimgi turkiy til ta'siri saqlangan bo'lsa-da, yozma adabiy til taraqqiyotini belgilovchi o'ziga xos ba'zi xususiyatlar, o'zgarishlar yuzaga kelganligi kuzatiladi. Xususan, XI-XIV asrlar birinchi yarmida yaratilgan umumturkiy tilning qoraxoniylar yoki Sharqiy Turkiston va Movarounnahr adabiy muhitiga xos "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig" kabi asarlarda qadimdan davom etib kelgan kitobiy-yozma til ta'siri ko'proq uchraydi va ularda qarluq guruhi lahjalarining xususiyatlari ustun turadi. Shu kabi qisman o'g'uz-qipchoq lahjalarining ta'siri ham kuzatiladi.

3. Umumturkiy tilning XI-XIII asrlar yozma yodgorliklari tilida ham, asosan, 8 ta unli bo'lgan. Jumladan, "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'otit turk" kabi asarlarda buni kuzatish mumkin. XIII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmida yaratilgan yozma yodgorliklar tilida, esa, asosan, 8-9 unli qo'llanganligi kuzatildi. Bu tovushlar eski o'zbek tilining keyingi davrlarida shakllana boshlagan.

4. Qadimgi bitiglarda, asosan, 16-17 undosh fonemalar qo'llangan bo'lsa-da, lekin ba'zi yodgorliklarda 10 ta undosh ikkitadan belgiga ega bo'lgan va 4 tasi qo'shaloq tovushni ifodalagan. Shuningdek, turkiy til yodgorliklari tilida ba'zi bir undosh fonemalarning shakllanmaganligi, umuman, fonetik farqlar eski o'zbek tili bosqichidagi taraqqiyoti bilan izohlanadi. Eski o'zbek yozma adabiy tili bosqichi yodgorliklarida 24-26 ta undosh fonema kuzatilgan (9-jadvalga qarang).

5. Qadimgi turkiy til asosida XI-XIV asrlarda eski o'zbek yozma adabiy tilining yagona umumiy morfologik tizimi tarkib topib, bu davr yozma yodgorliklari tilida qonuniy ravishda uchrab turadigan ayrim morfologik farqlar

esa asta-sekin adabiy til meyorlariga tomon yaqinlashib bordi. Buni shu davrda yaratilgan adabiy-badiiy asarlar matnlari tasdiqlaydi.

6. Qadimgi turkiy yodgorliklari tilidagi ot va otlashgan soʻzlarda qoʻllangan kelishik shakllari dastlabki davrlarda eski oʻzbek yozma adabiy tili bosqichining baʼzi yodgorliklari tilida toʻliq uchrasa-da, koʻplarida adabiy tilning keyingi davrlaridagi taraqqiyoti uchun umumiy boʻlgan shakllari qatʼiy qoʻllanila boshlaganligi kuzatiladi. Jumladan, qadimgi turkiy til davrlaridayoq ayrim kelishiklarning leksik-grammatik shakllari isteʼmolda cheklana borgan. Kelishik qoʻshimchalarining bunday shakllari adabiy tilning XI-XIV asrlar bosqichi uchun qoʻllanishi xarakterli boʻlmay qolgan.

7. Feʼlning shaxs-son qoʻshimchalari (ularning fonetik shakllari nazarga olinmasa) hozirgi oʻzbek adabiy tildagi singari meyorlashayotganligi kuzatildi. Har uchala guruhga kirgan shaxs-son affikslari qatʼiylashgan: **барамэн, барасэн, бардым, бардың, бардық, бардыңыз, барайын, барғыл, барайлик, барың, барыңыз барамыз** singari (ularning fonetik shakllari esa singarmonizm hodisasi bilan bogʻlangan).

8. Eski oʻzbek yozma adabiy tili yodgorliklarida hali qisman uchragan ayrim qadimiy va hududiy-dialektal koʻrinishdagi morfologik farqlar esa grammatik unsurlarning asta-sekin adabiy til meyorlariga tomon yaqinlashib borganligini koʻrsatadi. Umuman, qadimgi umumturkiy til asosida eski oʻzbek adabiy tilining ilk fonetik, morfologik meyorlari tarkib topa boshladi va XI-XIV asrlar birinchi yarmida bu jarayon tezlashdi. Bunga eski oʻzbek yozma adabiy tilidagi qayd etilgan yozma yodgorliklar asos boʻldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008. – 173 b.
2. Karimov.I.A. Milliy istiqlol mafkurasi–xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.:O'zbekiston, 2000.-31 b.
3. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq, 1998.-31 b.

II. Asosiy adabiyotlar

1. Abdurahmanov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til.-T.: O'qituvchi, 1982. -167 b.
2. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh.O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. -T.: O'qituvchi, 1973.-320 b.
3. Abdurahmonov G'. O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida. -T.: TDSHI, 1999.-88 b.
4. Abulg'oziy. Shajarai turk.(Nashrga tayyorlovchilar: Q.Munirov, Q.Mahmudov).-T.: Cho'lpon, 1992.-2000 b.
5. Abushiy X.A. Turkiy qavmlar tarixi. (Nashrga tayyorlovchi P.Ravshanov). -T.: Cho'lpon, 1995. -240 b.
6. Azamat Ziyo .O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.:Sharq, 2001. -366 b.
7. Alisher Navoiy. 15 tomlik. -T.: G'afur G'ulom, 1968. 15-t.-157 b.
8. Attuhfatuz zakiyatu fil-lug'atit-turkiya (tarjimon va nashrga tayyorlovchi Mutallibov S.M.).-T.: Fan, 1968.-278 b.
9. Ahmad Yassaviy.Hikmatlar. -T.: G'afur G'ulom, 1991.-256 b.
10. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. (Nashrga tayyorlovchi A.Abdushukurov).-T.: G'afur G'ulom, 1992.-207 b.
11. Ahmedov B.O'zbeklarning kelib chiqishi tarixidan.-T.: Fan, 1962.-77 b.
12. Баскаков Н.А.Тюркские языки.-М.: Изд.вост.лит.,1960.-248 с.;1966.-530 с.
13. Boynazarov F. O'rta Osiyoning antik davri.-T.: O'qituvchi, 1991.-471 b.

14. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi.-T: Gʻafur Gʻulom, 1990. -93 b.
15. Дадабаев Х., Носиров Н., Хусанов Х. Проблемы лексики староузбекского языка.-Т.: Фан, 1990.-213 с.
16. Devonu lugʻotit turk. Indeks-lugʻat.-Т.:Fan, 1967.-545 b.
19. Doniyorov X. Oʻzbek xalqining shajara va shevalari. -Т.: Fan, 1968. -98 b.
20. Doniyorov X., Yoʻldoshev B. Adabiy til va badiiy stil.-Т.:Fan, 1988, - 206 b.
21. Doniyorov X., Sanaqulov U. Navoiy-tilshunos olim.-Т.:Fan, 1990.-60 b.
22. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi.1-k.-Т.: Oʻqituvchi, 1997.- 37-b.(-527 b.)
23. Кляшторный С.Г. Эпоха Махмуда Кошгарского // Советская тюркология. -Баку, 1972. - № 1.- С. 26.
24. Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников “VIII-IX вв.” -Л.: Наука, 1980.-235 с.
25. Lapasov J. ”Yusuf va Zulayho” dostoni morfologiyasi.-Т.: Fan, 1988.-87 b.
26. Mallayev N.M. Oʻzbek adabiyoti tarixi.1-kitob.-Т. Oʻqituvchi, 1965.- 746 b.
27. Matgʻoziyev A. XIX asr oʻzbek tilining morfologiyasi.-Т.:Fan, 1977. - 201 b.
28. Махмудов К. Фонологические особенности тюркоязычных письменных памятников XIII-XIV вв.: Автореф. дис....д-ра филол.наук.-Т., 1992.
29. Mahmudov N. Til. -Т.: Yozuvchi, 1998.-36 b.
30. Mahmudov Q. Ahmad Yugnakiyning “Hibtul haqoyiq” asari haqida. (Kirish, fonetika, morfologiya, tanqidiy matn, transkripsiya, sharh, lugʻat).-Т.: Fan, 1972.-300 b.

31. Mahmudov Q. XIII-XIV asr yozma obidalar tilining fonetik sistemasi. - T.: Fan, 1974.-188 b.
32. Mahmudov Q. Turkiy hoqonliklar//Turon tarixi to'plami.- T.: Fan, 1992.- 32 b.
33. Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. -T.: Fan, 2004. -150 b.
34. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. (Nashrga tayyorlovchilar-B.Ahmedov, N.Norqulov, Hasaniy.)-T.: Cho'lpon, 1994.-351 b.
35. Muborak maktublar. (Xorazmiy. Muhabbatnoma 39-b.)- T.: G'afur G'ulom, 1987.-72 b.
36. Muxtorov A., Sanakulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. -T.: O'qituvchi, 1995.-160 b.
37. Mutallibov S.M.Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk.-T.: Fan, 1959.-239 b.
38. Navoiy asarlarining lug'ati (Tuzuvchilar: P.Shamisiyev, S.Ibrohimov). - T.: G'afur G'ulom, 1972.-782 b.
39. Наджип Э.Н.Историко-сравнительный словарь тюркских языков XIV века.-М.: Наука, Кн 1. 1979.-479 с.
40. Наджип Э.Н. Исследование по истории тюркских языков XI-XIV вв.-М.: Наука, 1989.-283 с.
41. Nasimxon Rahmon. Turk hoqonligi. -T.:Abdulla Qodiriy, 1993.-142 b.
42. Nafasov T.Janubiy O'zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi.- T.: TDPI, 1985.-83 b.
43. Ne'matov H. O'zbek tili tarixiy fonetikasi.-T.: O'qituvchi, 1992.-92 b.
44. Nosiriruddin Burxoniddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob. (Nashrga tayyorlovchilar E.I.Fozilov, A. Yunusov, H.Dadaboyev).-T.:Yozuvchi, 1-k. 1990.-236 b., 2-k. 1991.-273 b.
45. Nurmonov A., Mahmudov N.O'zbek tilshunosligi tarixi.-T.: O'qituvchi, 2000. -260 b.
46. Nurmonov A.O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi.-T.: O'qituvchi, 1990.-45 b.

47. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi.-T.: O‘zbekiston, 2002. -232 b.
48. Rustamov A. XV asr o‘zbek adabiy tilining vokalizmi// O‘zbek tili va adabiyoti. -1966. -№3.-B.11-15.
49. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. (Nashrga tayyorlovchi P.Ravshanov) -T.: Cho‘lpon, 1991. -350 b.
50. Санақулов У. Исследование языка памятника XV в. “Мухакама-ул лугатайн” Алишера Навои: Автореф.дис.... канд.филол.наук.-Т., 1971.-29 с.
51. Sanaqulov U. Koshg‘ariy hikmatlari.-Samarkand: SamGU, 1997. -45 b
52. Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi (ilk taraqqiyoti davrlari).-T.:Fan, 2001.-289 b.
53. Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tilining ilk davrlari.-T.: G‘afur G‘ulom, 2004. -279 b.
54. Sanaqulov U. O‘zbek xalqining hamda tilining tarkib topishi va nomlanishi.-Samarqand: SamDPI, 1991.-46 b.
55. Sulaymon Boqirg‘oniy. Boqirg‘on kitobi. (Nashrga tayyorlovchilar Haqqulov I.,Sayfiddin Raf‘iddin).- T.: Yozuvchi, 1991.-3-b.(-77 b.). Nashr nusxalari Toshkentdagi Sharqshunoslik institutida .Inv.№ 12646, № 289.
56. Sodiqov Q.Ajdodlar bitigi.-T.: Fan, 1990.-30 b.
57. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab.-T.: O‘qituvchi, 1964.-124 b.
58. Tursunov U., O‘rinboyev B.O‘zbek adabiy tili tarixi. -T.: O‘qituvchi, 1982. -174 b.
59. To‘ychiboyev B.O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. –T.: O‘qituvchi, 1996. -176 b.
60. Умаров Э.А. Староузбекского языка XV века и новая транслитерация “Бадаъий ал луғат”-Т.:АНУзР, 2004. -30 с.
61. Fozilov E.I.Qadimgi obidalar va Alisher Navoiy tili. -T.: Fan, 1969.-87 b.

62. Fozilov E . XIV asr Xorazm yodnomalari (Kutb. Xusrav-u Shirin -133-b.Ushbu nashrda asarning Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan hijriy 785 yilda ko‘chirilgan nusxasi asos qilib olingan). -T.: Fan,1973.-226 b.
63. Fozilov E.I.O‘zbek adabiy tilining shakllanishi tarixi haqida. O‘zbek tili masalalari to‘plami.-T.: Fan, 1977.-3-9 bb.
64. Yusuf Xos Xojib. Qutadg‘u bilig (Nashrga tayyorlovchi Q.Karimov). – T.: Fan, 1971.-964 b.
65. XIII-XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklari tili.-T.:Fan, 1986.-288 b
66. Шербак А.М.Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков.-Л.: Наука, 1977.-149 с.
67. Шербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X-XIII вв. из Восточного Туркестана.-М.Л.: Изд.АН СССР, 1961.-204 с.
68. Hidoyatov T.A. Mening jonajon tarixim.-T.: O‘qituvchi, 1992.-305 b.

III. Qo‘shimcha adabiyotlar (lug‘atlar)

1. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. /Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. Tom. I-III. –Toshkent, 1960-1963.
- T.1. –1960. –499 b.
- T.2. –1961. –427 b.
- T.3. –1963. –466 b.
- 2.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tomlik, T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000-2006.
- 3.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomlik. Birinchi tom. –M.: Rus tili, 1981.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomlik. Ikkinchi tom. –M.: Rus tili, 1981.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5-jildli) –T.: «O‘ME» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.T. I,II,III. 2008.T.IV,V. –B. 680; 672; 688; 608; 592.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.-M.:Rus tili,1981.T.I.II.–631 b;-715 b.

7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.–T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2000, 2001.T. I.II.–736 b; –704 b.

8. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.–T.: O'zbek Milliy Ensiklopediyasi, 2002. –164 b.

IV. Internet saytlari:

1. <http://www.rsl.ru.yazikoznaniye>.
2. <http://www.dissershop.com>.
3. <http://www.newdissertation.com>.
4. <http://www.disser.ru>.
5. <http://lexikon.anaman.de/lexikon.htm>

GLDV vebsayti:

- a) <http://www.gldv.org/cms/gldv.php>
- б) <http://www.ziyonet.uz>
- в) <http://www.ziyouz>
6. <http://www.google.uz>

